



OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

X.ABDURAMANOV, I.BAKIYEVA,
B.ISAMUXAMEDOV, J.RUSTAMOV

OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGI

USLUBIY QO'LLANMA

“Pages print” nashriyoti,
Toshkent – 2025

◆ ◆ ◆

Ushbu qo'llanma ota-onalarning iqtisodiy bilimlarini oshirish, oilaviy byudjetni samarali rejalashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiya berishga qaratilgan bo'lib, oilaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kelajak avlodga mustahkam iqtisodiy poydevor yaratish va jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Unda ota-onalar shaxsiy moliyaviy rejalashtirish, daromad va xarajatlarni muvozanatlash, jamg'arma va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish, kredit va qarzlarni to'g'ri boshqarish, farzandlarga moliyaviy tarbiya berish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha batafsil tushunchalar va tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qo'llanma Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 28-martdagi 3-sonli bayonnomasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: **Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,**
pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: **P.Z.Xoshimov,**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.A.Xonturayev,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

UO'K: 316.334.2:330(072)
KBK: 60.56+65.01
O-86

X.Abduramanov, I.Bakiyeva,
B.Isamuxamedov, J.Rustamov.

Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi [Matn]: uslubiy qo'llanma / X.Abduramanov, I.Bakiyeva, B.Isamuxamedov, J.Rustamov. – Toshkent: "Pages print" nashriyoti, 2025. – 40 b.

ISBN: 978-9910-8722-9-7

© "Pages print" nashriyoti, 2025.

MUNDARIJA

Kirish 4

1.

Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi hamda uni oshirish usullari 6

2.

Oila byudjeti va uni tuzish asoslari 16

3.

Farzand byudjeti va uni rejalashtirish bosqichlari 22

4.

Ota-onalar uchun 5 ta moliyaviy qoida 28

Xulosa 37

KIRISH

Yangi oila qurish, farzandli bo'lish va oilada farzand tarbiyalash – inson hayotidagi eng muhim, mas'uliyatli va hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu bosqichlar inson faqat shaxsiy hayotida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy roli va kelajak avlodga bo'lgan mas'uliyatini belgilab beradi. Ayniqsa, mazkur bosqichlarda ota-onaning faqat mehr va g'amxo'rlikka emas, balki yetarli darajadagi bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lishi juda muhimdir.

Bu borada ma'naviy va psixologik tayyorgarlik bilan bir qatorda, iqtisodiy bilimlar va moliyaviy masalalarni boshqara olish qobiliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir oilaning barqarorligi, rivoji va kelajagi ko'p jihatdan aynan moliyaviy rejalarining to'g'ri tuzilishiga, xarajatlar va daromadlarni oqilona boshqarishga, uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan iqtisodiy yondashuvga bog'liqdir. Har qanday mehr-muhabbat muhiti ham yetarli moliyaviy barqarorlik va to'g'ri boshqaruv bo'lmasa, o'zining salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi.

Zamonaviy jamiyatda inflyatsiya, bozor iqtisodiyoti, iste'mol madaniyati, qarz va to'lov majburiyatlari, investitsiya, ta'lim va sog'liq uchun zaxira mablag' to'plash kabi omillar har bir ota-onaning kundalik hayotida uchraydigan masalalarga aylangan. Shu sababli, yangi oila qurgan yoshlar va farzand ko'rishni rejalashtirayotgan juftliklar uchun iqtisodiy bilim va moliyaviy savodxonlik hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Ular bu bilimlar yordamida nafaqat shaxsiy xarajatlarini nazorat qiladi,

balki farzandlariga ham to'g'ri moliyaviy qadriyatlar va odatlarni singdiradi.

Ushbu uslubiy qo'llanmada keltirilgan tavsiyalar, amaliy ko'rsatmalar va moliyaviy rejalar yosh oilalarga o'z hayotlarida samarali moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Xususan, oylik daromad va xarajatlarni rejalashtirish, turli maqsadlar uchun zaxira mablag' to'plash, farzand ta'limi va sog'ligi uchun moliyaviy tayyorgarlik ko'rish, kredit va qarz masalalarida oqilona yondashuv, oilaviy moliyaviy qarorlarni birgalikda muhokama qilish kabi ko'plab amaliy masalalar yoritilgan.

Qo'llanmaning asosiy maqsadi – har bir oilani iqtisodiy jihatdan barqaror va mustaqil holga keltirish, farzandlar uchun sog'lom, ma'naviy jihatdan boy va moddiy jihatdan ta'minlangan muhit yaratishga ko'maklashishdir. Bu orqali kelajakda mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi va o'z hayotini to'g'ri rejalashtira oladigan avlod voyaga yetishi ta'minlanadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy bilimli ota-onalar – barqaror oila, mustahkam jamiyat va rivojlangan kelajak poydevoridir.

OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGI HAMDA UNI OSHIRISH USULLARI

Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi deganda – ularning shaxsiy va oilaviy moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, jamg'arish va sarmoya qilish, moliyaviy tavakkalchilikni baholash, qarzlarini oqilona boshqarish, shuningdek, farzandlarga moliyaviy savodxonlikni o'rgatishga doir bilim va ko'nikmalarining yig'indisi tushuniladi.

Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*daromad va
xarajatlarni
rejalashtirish;*

01

*zaxira
mablag'
to'plash;*

02

*qarz va
kreditlarni
boshqarish;*

03

*uzoq muddatli
moliyaviy
maqsadlarni
belgilash;*

04

*bolalarda
moliyaviy
madaniyatni
shakllantirish;*

05

*pulga nisbatan
ongli
munosabatni
rivojlantirish.*

06

Har bir oila a'zosining moliyaviy bilimga ega bo'lishi – barqaror hayot tarzi, samarali byudjet boshqaruvi va kelajak uchun ishonchli asos yaratishning asosiy sharti hisoblanadi. Moliyaviy bilim – bu nafaqat pulni qanday sarflash yoki jamg'arish, balki moliyaviy qarorlarni to'g'ri qabul qilish, xatarlarni baholash, ehtiyoj va xohishni farqlay olish, shaxsiy va oilaviy ustuvorliklarni to'g'ri belgilash salohiyatidir.

Masalan, ota-ona daromad va xarajatlarni hisobga olmasdan hayot kechirsa, bola tug'ilishi, ta'lim xarajatlari, kasalliklar yoki uy-joy ta'miri kabi kutilmagan holatlarda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi muqarrar. Agar har bir a'zo o'z daromadi va oilaviy byudjetdagi rolini to'g'ri anglasa, qarorlar birgalikda va mas'uliyatli qabul qilinadi, mustahkam va ishonchli muhit shakllanadi.

Moliyaviy savodsizlik oqibatlariga doir misollar:



1. Kreditlar ustiga kredit olish. Uy sotib olish uchun yetarli bilim va maslahatsiz olingan kredit natijasida, ayrim oilalar foizlarni vaqtida to'lay olmay, o'z turar joyidan mahrum bo'lmoqda.

2. To'g'ri rejalashtirilmagan xarajatlar. Bir oylik daromadning katta qismi ko'ngilochar xarajatlarga sarflanib, ta'lim yoki tibbiy ehtiyoj uchun mablag' qolmaydi.



3. Zaxira mablag'ining shakllantirilmasiligi. Kasallik, ishsizlik yoki boshqa favqulodda holatda zaxira mablag'ining yo'qligi sababli qarzga botish holatlari yuzaga keladi.

Moliyaviy savodsizlikning oilaviy munosabatlarga ta'siri

Moliyaviy savodsizlik faqat iqtisodiy emas, balki ishonchsizlik va nizolar, oilaviy stress va ruhiy bosim, ajralish xavfi kabi quyidagi psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi:



1. **Ishonchsizlik va nizolar.** Er-xotin xarajatlar haqida ochiq gaplashmasligi, pinhona qarzlar yoki yirik sarf-xarajatlar ular o'rtasida o'zaro ishonchni yo'qotadi.



2. **Oilaviy stress va ruhiy bosim.** Moliyaviy muammolar oilada doimiy stress va asabiylikka sabab bo'ladi, bu esa munosabatlar sovishiga va bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi.



3. **Ajralish xavfi.** Ko'pincha ajrim sabablari orasida "moliyaviy kelishmovchiliklar" katta o'rin tutadi. Moliyaviy kelishmovchiliklar va mas'uliyatsizlik juftliklar o'rtasida nizolarni kuchaytiradi, bu esa ajralish xavfini oshiradi.



Eslatma: Ota-onaning iqtisodiy bilimdonligi – bu bir martalik emas, balki doimiy ravishda rivojlanib boradigan ko'nikmadir. Har bir to'g'ri qadam – farzandingiz kelajagiga qilingan sarmoyadir.

OTA-ONANING IQTISODIY BILIMDONLIGINI OSHIRISH USULLARI

1. MOLIVAVIY TA'LIM KURLARI VA TRENINGLAR

Ota-onalar o'z iqtisodiy bilimlarini oshirish uchun maxsus kurslar, seminarlar va treninglarda qatnashishi kerak. Ushbu ta'lim kurslari va treninglarda ota-onalar oila byudjetini to'g'ri boshqarish, daromad va xarajatlarni balansini ta'minlash, jamg'arma qilish usullari, qarzga kirmaslik va kreditlarni to'g'ri boshqarish, investitsiya qilish asoslari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi.

2. OILA BYUDJETINI YURITISH VA REJALASHTIRISH

Oila byudjetini boshqarish – bu moliyaviy barqarorlikka erishish va kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishning asosiy shartlaridan biridir. Har oylik daromad va xarajatlarni ro'yxatga olib borish orqali oila o'z moliyaviy holatini to'liq anglaydi, mablag'larni qay tarzda sarflayotganini tahlil qiladi va keraksiz xarajatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ortiqcha xarajatlarni kamaytirish moliyaviy intizomni shakllantirib, oilaga mablag'ni samarali taqsimlashga yordam beradi. Shu bilan birga, jamg'arma va sarmoya uchun mablag' ajratish oilani kutilmagan moliyaviy holatlardan himoya qiladi va kelajakda katta maqsadlarga erishishga asos yaratadi. Jamg'arilgan mablag'lar orqali oila ta'lim, tibbiy xizmatlar, uy-joy yoki tadbirkorlik kabi muhim yo'nalishlarga sarmoya kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Byudjetni oqilona boshqarish nafaqat kundalik moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki oila a'zolarining moliyaviy intizomini

mustahkamlab, uzoq muddatli rivojlanish va farovonlikka yo'l ochadi.



3. BOLALARGA IQTISODIY SAVODXONLIKNI O'RGATISH

Bolalarga iqtisodiy savodxonlikni o'rgatish ularning kelajakda mas'uliyatli va mustaqil shaxs sifatida voyaga yetishi uchun muhim qadam hisoblanadi. Iqtisodiy bilimni bolalikdan shakllantirish uchun ularga har hafta ma'lum miqdorda cho'ntak puli berish va uni oqilona boshqarishni o'rgatish samarali usullardan biridir. Bu bolalarni xarajat va jamg'arma o'rtasidagi muvozanatni saqlashga, mablag'ni rejali sarflash va ortiqcha xarajatlardan qochishga o'rgatadi. Shuningdek, uyda iqtisodiy o'yinlar o'ynash, xususan, "bank" yoki "savdo" o'yinlari orqali bolalar pul aylanishi, daromad va xarajatlar haqida tushunchaga ega bo'ladi. Bu kabi o'yinlar ularga iqtisodiy jarayonlarni sodda va qiziqarli tarzda anglashga yordam beradi. Shuningdek, bolalarga tadbirkorlik va tijoratni bolalikdan o'rgatish, ularni kichik loyihalarga jalb qilish orqali biznes va moliyaviy mas'uliyat haqida tushuncha berish ham kelajakda ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tarbiya bolalarning ongli ravishda moliyaviy qarorlar qabul qilishiga, mustaqillik va intizomlikni shakllantirishiga hamda ularning kelajakda muvaffaqiyatli va moliyaviy barqaror hayot kechirishiga zamin yaratadi.

HAR HAFTA BOLALARGA
MA'LUM MIQDORDA
"CHO'NTAK PULI" BERISH
VA UNI BOSHQARISHGA
O'RGATISH

UYDA IQTISODIY
O'YINLAR
O'YNASH
(masalan, "bank" o'yini)

TIJORAT VA
TADBIRKORLIKNI
BOLALIKDAN
O'RGATISH

BOLALARGA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI O'RGATISH USULLARI

4. QARZ VA KREDITLARNI BOSHQARISH

Qarz va kreditlardan foydalanish har bir oila uchun zarur holat bo'lishi mumkin, lekin ularni samarali boshqarish oilaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ota-ona oilada moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun, avvalo, mavjud moliyaviy holatni to'g'ri baholashi lozim. Qarz va kreditlarni boshqarishdagi birinchi qadam bu – oilaning moliyaviy vaziyatini real baholashdir.

Ota-ona uchun tavsiyalar:

- ✓ oila daromadi va xarajatlarini tahlil qiling;
- ✓ qarz miqdorini aniqlang (ipoteka, ta'lim krediti, iste'mol krediti va h.k.)
- ✓ qarz to'lovlari oylik daromadga qanchalik ta'sir qilishini baholang;
- ✓ oilaning iqtisodiy holatini yaxshilash yo'llarini izlang;
- ✓ qarz olishda ehtiyotkor bo'ling.



Eslatma: Qarz olishdan avval uning qay darajada zarur ekanini baholash muhim:

Ota-ona uchun tavsiyalar:

- ✓ zaruriyatdan tashqari qarzga kirishdan qoching;
- ✓ qarz foiz miqdorini solishtiring;
- ✓ qarz qaysi valyutada olinayotganini inobatga oling;
- ✓ muddatidan oldin yopish imkoniyati mavjudligini o'rganing;
- ✓ oilangizning qarzni to'lashga qodir ekanligini aniqlang.



Eslatma: Qarzlarning umumiy miqdori oila daromadi-ning 30 foizidan oshmasligi kerak. Qarzni o'z vaqtida to'lash – oila-ning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartidir.

Ota-ona uchun tavsiyalar:

- ✓ qarz to'lash grafigini tuzing;
- ✓ qarzni muddatidan oldin yopish imkoniyatini ko'rib chiqing;
- ✓ to'lovlarni kechiktirmang.

Ota-ona ortiqcha qarzga kirishning oldini olish uchun har oy jamg'arma yaratishi, ortiqcha xarajatlardan voz kechishi, oila byudjetiga mos ravishda harakat qilishi kerak.

5. MOLIYAVIY MAQSADLAR VA JAMG'ARMA TUZISH.

Ota-ona tomonidan moliyaviy maqsadlar to'g'ri tuzilgan bo'lsa, oila byudjeti samarali boshqariladi, ortiqcha xarajatlardan qochish

mumkin bo'ladi. Jamg'arma esa oilada moliyaviy xavflardan himoya qilish va mustahkam moliyaviy poydevor yaratish uchun xizmat qiladi.

Ota-ona uchun moliyaviy maqsadlarni belgilash va jamg'arma tuzish – bu oila barqarorligi va farzandlar kelajagini ta'minlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli muhim jarayon. Quyida moliyaviy maqsadlarni belgilash va jamg'arma tuzish bo'yicha yo'l-yo'riqlar keltirilgan:

Oilaning moliyaviy maqsadlarini belgilash. Maqsadlar aniq, o'lchanadigan va amalga oshirish uchun real bo'lishi kerak.



OTA-ONA UCHUN TAVSIYALAR



Qisqa muddatli maqsadlar (1 yilgacha):

- *jamg'arma yaratish;*
- *qarzlarni yopish;*
- *mavsumiy ta'tilga chiqish.*



O'rta muddatli maqsadlar (1–5 yil):

- *uy yoki transport vositasi sotib olish;*
- *bolalar ta'limi uchun mablag' jamg'arish;*
- *oilaviy biznes tashkil qilish.*



Uzoq muddatli maqsadlar (5 yildan ko'proq):

- *uy sotib olish;*
- *bolalar oliy ta'limi uchun mablag' yig'ish;*
- *nafaqaga chiqish uchun zaxira yaratish.*



Jamg'arma tuzish oila uchun moliyaviy xavfsizlik kafolati hisoblanadi. Jamg'arma orqali oilaning qarzga kirish ehtimoli kamayadi, moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi.

Jamg'arma turlari



Qisqa muddatli jamg'arma (1 yilgacha):

- kutilmagan xarajatlar (tibbiy xizmat, maishiy texnika buzilishi, uy va mashina ta'miri);
- qarz va kredit to'lovlarini muddatidan oldin yopish;
- maishiy texnika va mebel sotib olish;
- ta'til yoki oilaviy tadbirlar uchun mablag' yig'ish;
- oilaviy ehtiyojlar uchun zaxira yaratish.



O'rta muddatli jamg'arma (1–5 yil):

- farzandlarni maktab yoki oliy o'quv yurtiga joylashtirish uchun mablag' yig'ish;
- qo'shimcha ta'lim (til kurslari, sport to'garaklari) uchun mablag' jamg'arish;
- oilaviy ta'til yoki chet elga sayohat uchun mablag' jamg'arish;
- uy yoki xonadon uchun dastlabki to'lov qilishga mablag' yig'ish;
- avtomobil xaridi yoki ta'miri uchun mablag' jamg'arish;
- uy jihozlarini yangilash yoki ta'mirlash uchun mablag' to'plash;

- maishiy texnika (televizor, muzlatkich, kir yuvish mashinasi) sotib olish uchun mablag' yig'ish.



Uzoq muddatli jamg'arma (5 yildan ko'proq):

- uy-joy sotib olish;
- transport vositasi sotib olish;
- farzandlarni oliy ma'lumotli qilish;
- pensiya yoshi uchun moliyaviy himoya ta'minlash;
- farzandlarga moliyaviy yordam ko'rsatish;
- ko'chmas mulk yoki aktivlar sotib olish.

6. RAQAMLI MOLİYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib, moliyaviy munosabatlar va kundalik to'lovlar raqamli formatga o'tib bormoqda. Xususan, Internet orqali moliyaviy operatsiyalar amalga oshirish, onlayn banking, mobil ilova orqali to'lovlar va investitsiya qilish odatiy holga aylanib bormoqda. Shu sababli, ota-onalarning raqamli moliyaviy savodxonligi nafaqat o'zlarining moliyaviy barqarorligi, balki farzandlarini moliyaviy tarbiyalash va kelajakka tayyorlash uchun ham muhim hisoblanadi.

Raqamli moliyaviy savodxonlik Internet va mobil texnologiyalar orqali to'lovlar, jamg'armalar, investitsiya, kreditlar va moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

OILA BYUDJETI VA UNI TUZISH ASOSLARI



Farzandli bo'lish hayotdagi eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Bu jarayon nafaqat hissiy va ruhiy tayyorgarlikni, balki moliyaviy barqarorlikni ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan oila byudjetini shakllantirish farzandli bo'lishni rejalashtirayotgan va endi farzandli bo'lgan ota-onalar uchun juda dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchidan, farzand tug'ilishi bilan oilaning kundalik xarajatlari tabiiy ravishda oshadi. Oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiy xizmatlar, kiyim-kechak, bola parvarishi uchun zarur jihozlar va vositalar kabi yangi sarf-xarajatlar vujudga keladi.

Ikkinchidan, oila byudjetini shakllantirish orqali ota-onalar moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydilar.

Uchinchidan, to'g'ri shakllantirilgan oila byudjeti ota-onalarning uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirishda yordam beradi. Masalan, bola ta'limi uchun mablag' jamg'arish, uy-joy sharoitini yaxshilash yoki oilaviy farovonlikni oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy zaxiralarni rejali ravishda yig'ish mumkin bo'ladi.



“

Oila byudjeti – bu oila a’zolarining ma’lum bir davr (bir oy, bir yil) mobaynida olgan daromadlari va amalga oshirgan xarajatlarining yig’indisi bo’lib, oilaning moliyaviy holatini boshqarishga yordam beradigan muhim vosita hisoblanadi.

”

OILA BYUDJETI

DAROMADLAR



ish haqi;
tadbirkorlik daromadi;
ijara va aktivlardan
olinadigan daromad;
ijtimoiy nafaqalar;
pensiya;
pul o’tkazmalari;
xo’jalikdan kelgan
daromadlar;
boshqalar.



XARAJATLAR



oziq-ovqat;
kommunal xizmatlar va
uy-joy xarajatlari;
transport;
ta’lim va bola
parvarishi;
kiyim-kechak;
sog’liqni saqlash va
dori-darmon;
boshqalar.

OILA BYUDJETINI TUZISHNING ASOSIY QADAMLARI

I. Daromad va xarajatlarni aniqlash

Oila byudjeti tuzishning birinchi qadami – barcha daromad va xarajat manbalarini aniq belgilashdir.



Daromadlar deganda:

- » ota va onaning oylik ish haqi;
- » qo'shimcha daromadlar (tadbirkorlik, xizmatlar, bir martalik to'lovlar);
- » ijtimoiy nafaqalar va sug'urta to'lovlari;
- » qarindoshlar yoki boshqa manbalardan olinadigan moliyaviy yordamlar tushuniladi.



Xarajatlar deganda:

- » barqaror xarajatlar (kommunal to'lovlar, oziq-ovqat, transport);
- » o'zgaruvchan xarajatlar (kiyim-kechak, dam olish, bola parvarishi);
- » kutilmagan xarajatlar (tez tibbiy yordam, ta'mirlash ishlari) nazarda tutiladi.

Har bir daromad va xarajat turi oylik yoki yillik hisobda aniq va real ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu oila moliyasini aniq boshqarish va mablag'ni samarali taqsimlash imkonini yaratadi.

II. Ustuvor ehtiyojlarni belgilash

Oila byudjeti tuzishda barcha xarajatlar orasida ustuvor ehtiyojlarni belgilash juda muhim. Ustuvor ehtiyojlar – hayot uchun

zarur bo'lgan, kechiktirib bo'lmaydigan va doimiy ravishda ta'minlanishi kerak bo'lgan xarajatlardir.

Ustuvor ehtiyojlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- » oziq-ovqat;
- » kommunal xizmatlar (gaz, suv, elektr, internet);
- » sog'liqni saqlash xarajatlari (tibbiy xizmat va dori-darmon);
- » farzand uchun zaruriy mahsulotlar (ozuqa, kiyim, parvarish vositalari).

Ustuvor ehtiyojlar aniq belgilangach, byudjetning avval shu ehtiyojlarga mo'ljallangan qismi ajratiladi. Qolgan mablag'lar esa ikkinchi darajali ehtiyojlar va jamg'armalar uchun taqsimlanadi.

III. Zaxira jamg'arash va maqsadli mablag' to'plash

Oila byudjetini tuzishda zaxira yaratish va aniq maqsadlar uchun mablag' to'plash juda muhim hisoblanadi. Bu oilaning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va orzu-maqsadlariga rejali ravishda yetishishga yordam beradi.


Zaxira jamg'arish – kutilmagan holatlar (masalan, shoshilinch tibbiy yordam, ishdan ayrilish, ta'mir ishlari) uchun maxsus mablag' saqlashdir. Shuning uchun, har oy olinadigan daromaddan ozgina bo'lsa ham pul ajratib, alohida saqlab borish kerak.



Maqsadli mablag' to'plash – uzoq muddatli maqsadlar (bolaning ta'limi, uy xaridi, sayohatlar) uchun oldindan mablag' jamg'arishdir. Bunda ota-ona aniq maqsad qo'yadi: nima uchun pul yig'ilyapti, qancha vaqtda va qancha miqdorda yig'ilishi kerakligini belgilaydi.



Oila byudjetini samarali boshqarish uchun quyidagi usuldan foydalanish tavsiya etiladi:



OILAVIY MOLIYAVIY QARORLAR QABUL QILISH

Oilada moliyaviy qarorlar qabul qilish – bu ikki tomonning ham mas'uliyatini, ishonchini va hamkorligini namoyon etuvchi jarayondir. U nafaqat kundalik xarajatlar, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyatga ega.



YOSH OTA-ONALARGA OILAVIY MOLIYAVIY QARORLARNI BIRGALIKDA QABUL QILISH BO'YICHA MASLAHATLAR



1. Har oylik "moliyaviy uchrashuv" o'tkazing. Har oy oxirida birgalikda daromad, xarajat, zaxira va kelgusi oy rejalarini muhokama qiling.

2. Oilaviy byudjetni birga tuzing va kuzating. Xarajatlarni toifalarga ajrating (majburiy, ixtiyoriy, jamg'arma) va uni Word yoki Excel shaklida yuriting.





3. Katta xarid va sarmoyalarni kelishib qabul qiling.

Uy, mashina, texnika, kredit, ta'lim xarajatlari kabi masalalarda, albatta, bir-biringiz bilan maslahatlashing.

4. Qarz va kreditga ehtiyotkorona yondashing.

Oilaviy daromadning 20-30 foizdan ortig'ini kredit to'lovlariga yo'naltirmang, imkon qadar qarzsiz yashashga harakat qiling.



5. Favqulodda holatlar uchun jamg'arma yarating.

Har oyda daromadning kamida 10 foizini zaxira jamg'armasi sifatida ajrating.

6. Farzand tug'ilganidan keyin xarajatlarni qayta ko'rib chiqing. Taglik, dori-darmon, tekshiruvlar, oziq-ovqat va kiyim-kechak xarajatlarini inobatga oling.



7. Oilada ochiq muloqot va ishonch muhitini yarating. Daromad yoki xarajatni yashirishdan qoching. Bunday holat ishonchni yo'qotishga sabab bo'ladi.

8. Maqsadli jamg'arma va kelajak rejalarini belgilab oling. Masalan, farzand ta'limi, uy-joy uchun dastlabki to'lov, ta'til, tadbirkorlik kabi yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad qo'ying.



9. Moliyaviy savodxonlikni oshirib boring. Byudjet yuritish, sug'urta, investitsiya, raqamli to'lovlar haqida birliglikda bilim olishga vaqt ajrating.

10. "Sizniki – meniki" emas, "bizniki" tamoyilida qaror qabul qiling. Bu faqat pul masalasida emas, balki ishonch, hamjihatlik va mustahkam munosabatlar uchun asos bo'ladi.



FARZAND BYUDJETI VA UNI REJALASHTIRISH BOSQICHLARI



Farzandli bo'lish oila uchun nafaqat ma'naviy va jismoniy tayyorgarlikni, balki moliyaviy rejalashtirishni ham talab qiladi. Farzand byudjeti bolaning tug'ilganidan mustaqil hayotga qadam qo'ygunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, uning asosiy ehtiyojlari, ta'limi, sog'ligi va kelajagini ta'minlashga qaratilgan.

“

Farzand byudjeti – bu bola tug'ilganidan mustaqil hayotga o'tguniga qadar bo'lgan davrda uning ehtiyojlari uchun sarflanadigan mablag'larni rejalashtirish va taqsimlash tizimi.

”

Farzand byudjeti uchun moliyaviy rejalashtirish oilaning moliyaviy barqarorligi va bolaning kelajakdagi farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri rejalashtirilgan byudjet nafaqat bolaning hozirgi ehtiyojlarini qondirish, balki uning ta'limi, uy-joy va mustaqil hayotga tayyorgarlik jarayonini ham moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Moliyaviy rejalashtirishda “50/30/20” qoidasi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu usulga ko'ra, oilaning umumiy daromadi quyidagi uch asosiy yo'nalishga taqsimlanadi:

50 % – **zaruriy xarajatlarga** (*uy-joy, oziq-ovqat, transport, tibbiy xizmatlar, kommunal to'lovlar*).

30 % – **farzand rivojlanishiga** (*ta'lim, sport, ijodiy faoliyat, qo'shimcha to'g'araklar*).

20 % – **jamg'arma va investitsiyaga** (*bolaning kelajagi uchun mablag' yig'ish, investitsiya qilish*).

Bu taqsimot oilaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi bilan birga kelajak uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratishga yordam beradi.

FARZAND BYUDJETINI SHAKLLANTIRISHNING 3 TA ASOSIY BOSQICHI



1. FARZANDLI BO'LISHGA TAYYORGARLIK

Homiladorlik davrida oila byudjetiga tushadigan moliyaviy yukni oldindan rejalashtirish juda muhim. Bu davrda ayolning sog'ligini saqlash, bola tug'ilishini tayyorlash va kelajakdagi xarajatlarni hisobga olish kerak.

Homiladorlik davridagi asosiy xarajat turlari:

- ✓ doimiy tibbiy ko'riklar va tahlillar;
- ✓ davolanish va dorilar;
- ✓ tug'uruqxona va tibbiy xizmat haqi;
- ✓ ovqatlanish va vitaminlar;
- ✓ chaqaloq uchun buyum sotib olish.

Homiladorlik va tug'uruq jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun oldindan tayyorgarlik ko'rish va mablag' jamg'arish juda muhim. Chunki bu davrda tibbiy xizmatlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak va bola parvarishi bilan bog'liq xarajatlar ortadi.


NEGA MOLIYAVIY ZAHIRA ZARUR?

- > kutilmagan xarajatlarga tayyorlik;
- > qarzga tushmaslik va moliyaviy barqarorlikni saqlash;
- > tug'uruq va keyingi davrda moddiy muammolarning oldini olish;
- > oilaviy byudjetni samarali boshqarish.

**2. FARZAND TUG'ILGANIDAN KEYINGI XARAJATLAR.**

Farzand tug'ilganidan keyin oilaviy xarajatlar sezilarli darajada ortadi. Chunki bola parvarishi, tibbiy xizmatlar, oziq-ovqat va ta'limi bilan bog'liq xarajatlar oila byudjetiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu xarajatlarni oldindan rejalashtirish oilaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun muhimdir.

FARZAND TUG'ILGANIDAN KEYINGI DASTLABKI XARAJATLAR



tug'uruqdan keyingi tibbiy ko'riklar;
vaksinatsiya va immunitetni mustahkamlash;
oziq-ovqatlar va ovqatlanish bilan bog'liq xarajatlar;
gigiyena va parvarish uchun xarajatlar;
kiyim-kechak va aksessuarlar;
bolani tashish va uyda parvarishlash uchun buyumlar.

OTA-ONALAR UCHUN MOLIYAVIY O'ZGARISHLAR

Farzand tug'ilganidan keyin oila a'zolaridan biri (ko'pincha ona) vaqtinchalik bola parvarishi ta'tiliga chiqadi, bu esa oila byudjetiga ta'sir qiladi. Shuning uchun:



Mehnat ta'tili va farzand tug'ilganidan keyingi nafaqalarni hisoblash.

Homiladorlik va bola parvarishi davridagi kompensatsiya va davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordamlarni aniqlash.

Qo'shimcha daromad manbalarini topish (onlayn ish, uydan ishlash) juda muhim.



3. FARZAND UCHUN UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY REJALASHTIRISH

Farzand uchun uzoq muddatli moliyaviy rejalar tuzish ota-onalarning mas'uliyatli yondashuvini talab qiladi, chunki bola o'sishi bilan uning ta'limi, sog'ligi va rivojlanishi uchun talab qilinadigan xarajatlar ham oshib boradi. Shu bois, oilada moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida uzoq muddatli maqsadlarni belgilash va ularga qarab harakat qilishni oldindan rejalashtirishi kerak. Bolaning ta'limi uchun mablag' yig'ish eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, bu jarayonda bolalar bog'chasi va maktab xarajatlarini oldindan aniqlash, davlat yoki xususiy ta'lim muassasasi orasidan tanlov qilish va uzoq muddatli ta'lim fondini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bolaning salomatligini ta'minlash uchun jamg'arma yaratish ham o'ta muhim. Bunda xususiy tibbiy sug'urta orqali bolaning tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini kafolatlash, kutilmagan tibbiy muammolar uchun zaxira mablag' ajratish va muntazam tibbiy tekshiruvlar hamda profilaktik tadbirlarni rejalashtirish zarur. Moliyaviy rejalashtirishning bu kabi uzoq muddatli strategiyalari bolaning hayot sifati va kelajakdagi imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi, oilaga esa moddiy barqarorlik va xotirjamlik baxsh etadi.

Bola o'sishi bilan uning xarajatlari ham ortadi. Shuning uchun, oila byudjetini rejalashtirishda uzoq muddatli maqsadlarni belgilashi kerak.

BOLANING SALOMATLIGI UCHUN JAMG'ARMA

Bolaning salomatligi uchun jamg'arma yig'ish – bu farzandingiz sog'ligi uchun kutilmagan holatlarda tayyor turishni ta'minlaydigan moliyaviy xavfsizlik chorasidir. Bolalarning tibbiy xizmatlari uchun oila byudjetida maxsus bo'lim ajratilishi kerak.



**FAVQULODDA
TIBBIY
XARAJATLAR
UCHUN ZAXIRA
YARATING**



**TIBBIY KO'RIK VA
PROFILAKTIKA
ISHLARINI
REJALASHTIRING**

BOLANING TA'LIMI UCHUN MABLAG' YIG'ISH

Bolaning ta'limi uchun mablag' yig'ish – ota-onaning farzandi kelajagi uchun moliyaviy jihatdan tayyorgarlik ko'rishi bo'lib, ta'limga qaratiladigan mablag'ni asta-sekin yig'ishni anglatadi. Bu jarayonni rejali va samarali tashkil qilish uchun quyidagi bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi:



**BOLALAR
BOG'CHASI
VA MAKTAB
XARAJATLARINI
ANIQLASH**



**DAVLAT VA
XUSUSIY TA'LIM
ORASIDAN
TANLOV
QILISHLARINI
TAHLIL QILISH**



**UZOQ MUDDATLI
TA'LIM
JAMG'ARMASINI
YARATISH**

OTA-ONALAR UCHUN 5 TA MOLIYAVIY QOIDA

Oila – bir butun iqtisodiy organizm, oila aʼzolari esa ana shu organizmning tarkibiy qismidir. Mazkur butun bilan qism oʻrtasi-dagi garmoniya oilani mustaqil institutga aylantiradi. Lekin oilaning umumiy funksiyalari oila aʼzolarining oʻziga xos vazifalari va funksiyalari mavjudligini rad qilmaydi.

Ota-onalarning qariyb yarmi moliya, oila iqtisodiyoti haqida hech narsani tushunmasliklarini tan olishadi. Koʻp ota va onalar hujjatlarni deyarli oʻqimasdan imzolaydilar. Ularning har oʻndan biri oyiga qancha pul sarflashlarini ayta olmaydi. Agar oʻzimiz pul bilan ishlashni bilmasak, farzandimizning moliyaviy savodxonligini shakllantirish haqida nima deyishimiz mumkin?

X avlodga mansub ota-onalar farzandlari bilan moliyaviy masalalarni muhokama qilar ekan, oʻzlari buni baʼzida toʻliq tushunishmaydi. Ular oʻsgan tuzumda pul hozirgidek muhim, deb hisoblanmagan. Pul “qoʻlning kiri” sifatida qabul qilinib, u eʼtiborga loyiq boʻlmagan narsadek qabul qilingan. Yaxshi ishlagan tadbirkor, ishbilarmon, boy odamlar nopoklikda gumon qilingan. Qatagʻon

qilingan, ta'qibga uchragan. Biroq 1990-yillarga kelib, hamma narsa keskin o'zgardi: pul muvaffaqiyat o'lchovi, uning egasining xizmatlarini baholash mezon, deya hisoblana boshlandi.

Odamlar asta-sekinlik bilan pul muhim, lekin baribir u siz xohlagan narsaga erishishingizda vosita ekanligini, insonning xarakteri va ustuvorliklariga bog'liqligini tushuna boshladilar. Ota-onalar shuning uchun ham boshqa narsalar qatori farzandiga shaxsiy namuna orqali moliyaviy savodxonlik asoslarini singdirishlari kerak.

5 TA MOLIYAVIY QOIDA



1-QOIDA. PUL E'TIBORSIZLARNI KECHIRMAYDI

Ko'pchilik pulni shunchaki rang-barang qog'oz parchalari yoki mos kelmaydigan tangalar deb bilishadi. Shuning uchun ular qanday qilib pul "kechirishi" yoki "kechirmasligi" mumkin?" deyishadi. Ammo pul ijtimoiy munosabatlarning, ya'ni oxir-oqibat odamlar o'rtasidagi munosabatlarning mahsuli ekanligini eslasak, haqiqat aniqroq bo'ladi.

Moliyaviy soha bilan bog'liq narsalar ham pedagogika, psixologiya qonunlariga bo'ysunadi. Tanbal, ishyoqmas, loqayd odamning ishidan tortib shaxsiy hayotigacha bo'lgan hamma narsa palapartish, betartib bo'lishi aniq. Intizomli va tizimli odamning hamma masalalarda tartibga amal qilishining ehtimoli katta. Demak, har bir ota-ona farzandi o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishni, o'yinchoqlarni bir chekkaga yig'ishtirib, jadvalga rioya qilishni o'rgatganidek, ularga pul bilan muomala qilishni o'rgatishi kerak.

Masalan, **bolalarni pul bilan necha yoshida tanishtirish kerak?** Mutaxassislarning bildirishicha, uch-to'rt yoshdan boshlab. Birinchidan, do'konda o'yin shaklida va naqd pul bilan birinchi tanishish, turli xil banknotlar va tangalar o'xshash yoki boshqacha ekanligi haqidagi hikoya. Keyin bolani moliyaviy hayotingizga, kerakli oilaviy xaridlarga, byudjetlarni, rejalarni muhokama qilishga jalb qilish kerak va hokazo.

Bunda pedagogik usullardan biri – o'rnak ko'rsatish muhimdir. Bolalarga boshidanoq namuna bo'lishlari: ota-onalar pulni o'ylab va ehtiyotkorlik bilan ishlatishlari, oqilona xarid qilish va topgan narsalarining bir qismini muntazam tejaganlarini ko'rsatib borishlari ma'qul bo'ladi. Ular bunday munosabat bilan pul, odatda, zarur bo'lgan narsalar uchun yetarli ekanligini, tejash ularga katta xaridlar qilish, sayohat qilish va oilaga zarar bermasdan dam olish imkonini berishiga guvoh bo'lishadi.

2-QOIDA. HAMMA NARSANI PUL HAL QILMAYDI

Pulning ahamiyatini ortiqcha baholamang. Axir hayotdagi eng muhim narsalar – hurmat, sevgi va do'stlikni sotib olish mumkin emas. Shuning uchun, bolaga boshidanoq dunyo pul atrofida aylanmasligini, boshqa ko'plab muhim, qiziqarli va munosib narsalar borligini o'rgatib borish lozim.

Buning uchun, albatta, ota-onalar o'zlari moliyaviy savodxonlikka katta ahamiyat qaratishlari kerak.



*Dasturxon atrofida nuqul pul haqida gaplashish, bolaning iltimosiga jahl bilan **“Buning uchun pul yo‘q!”** deyish, oylik kuni mo‘l-ko‘l xarid va bayram qilib, boshqa kunlarni qattiq cheklovda o‘tkazish to‘g‘ri emas.*

Chunki bular bolalarni faqat “pul muammolardan xalos qilishi va quvonch baxsh etishi mumkin” deb o'ylashga majbur qiladi. Bundan tashqari, siz farzandingizning do'stlarini ularning oilalari farovonligiga qarab baholamasligingiz kerak. Aks holda, u “odamning qadrini pul bilan o'lchash” mumkin deb o'ylaydi.

Farzandingizga “hamma narsani pul hal qiladi” deb emas, pul ko'p masalalarni hal qilishda yoki maqsadlarga erishishda yordam beradi, lekin asosiy qadriyat bu baribir insonning o'zi ekani, sevgi, hurmat va haqiqiy insoniy qadriyatlar sotilmasligini uqtiring. Yaqin insoningizga bo'lgan e'tiboringizni qimmatbaho sovg'a belgilamaydi. Ammo sog'lom va uyg'un munosabatlar ularni yanada yorqinroq, yaxshiroq va kuchliroq qilish uchun moliyaviy komponentni istisno qilmaydi.

3-QOIDA. OILANGIZDA PUL HAQIDA OCHIQ GAPIRING

Ota-onalar orasida oila davrasida, farzandlari bilan pul haqida gapirmaydigan, ular bilan oilaning moliyaviy masalalarini muhokama qilmaydiganlari juda ko'p. "Nega?" desangiz, "Bu oila siri", "Pul bolani buzadi", – deyishadi. Biroq bu katta xato. Chunki ota-ona aytmasa, bola pul qayerdan va qanday kelishini, qanday va nimaga sarflanishini bilmaydi.

Aksincha, hatto kichik bolalar uchun ham oilada kim pul topishi, ish nima, u yerda kattalar nima qilishi haqida aytib berish kerak. Ana shundagina oilada sodir bo'layotgan moliyaviy voqealar haqida haqiqiy suhbat shakllanadi.

Oilalar bilan pul masalasini muhokama qilish – bu iqtisodiy tarbiyaga aylanadi. Bolalar ba'zan turli xil onlayn xizmatlar va ilovalardan qanday foydalanishni yaxshiroq bilishadi, bobo va buvilar esa ko'proq hayotiy tajribaga ega. Ular byudjetni optimallashtirish bo'yicha amaliy maslahatlar berishlari mumkin. Shunday qilib, siz pul haqida gapirib, nafaqat moliyaviy savodxonligingizni oshirasiz, balki oilangizni yanada birlashtira olasiz.

Bola bilan nafaqat daromad haqida gaplashish, balki xarajatlarni birgalikda rejalashtirish, byudjetni muhokama qilish, jamg'arma yoki investitsiya imkoniyatlarini solishtirish tavsiya qilinadi. Natijada bolangiz keyinchalik bank nimaligini, bank mahsulotlari, kreditlar va depozitlar haqida bilib oladi. Bola oiladagi vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni anglaydi, nima uchun ota-onasining unga kerakli narsani xarid qilishlarini kutishi kerakligini tushunadi.

4-QOIDA. BOLALARGA CHO'NTAK PULI BERING

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'pincha bolalar birinchi pullarini o'smirlik davrida olishadi. Biroq mutaxassislarning fikriga ko'ra, boshlang'ich maktabdan oldin ham bola kichik mustaqil xaridlarni amalga oshirishga tayyor. Bu kelajakda uning pulga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'pgina ota-onalarning yana bir xatosi – bu o'qishdagi muvaffaqiyati yoki yaxshi bajarilgan uy ishlari uchun tasodifiy pul berish. Bu yaxshi emas.

Chunki oila a'zolari bo'lgan bolalarning zimmasidagi vazifasi hisoblangan hamma ish uchun "pul to'lash" ularning ma'naviy motivatsiyasini pasaytiradi. Va agar siz pulni tartibsiz ravishda bersangiz, bola moliyani rejalashtirish va taqsimlashni o'rganmaydi. Bularning barchasi cho'ntak pulining tarbiyaviy ta'sirini kamaytiradi.

Yaxshi baholar yoki yuvilgan idishlar uchun "stavkalar" kiritish yaxshi emas. Bu siz bilan bolalaringiz orasidagi samimiy munosabatingizni buzadi va o'rganish motivatsiyasini kamaytiradi. Bolalarga xuddi shunday – yaxshi kayfiyatdan yoki oylik olgandan keyin sababsiz "bonuslar" berish ham noto'g'ri.

Eng yaxshi usul. Haftada bir yoki ikki marta bolaga o'rtacha miqdorda daromad ajrating. To'lov miqdori va chastotasi uning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini muvozanatlashtirgan holda oldindan muhokama qilinishi kerak. Siz mukofot tizimini o'ylab topishingiz mumkin, lekin bu bolaning uy ishlari yoki maktabdagi muvaffaqiyati uchun emas, balki bolalarning vazifalariga kiritilmagan ishlarni qilganliklari uchun berilishi kerak.

BOLAGA QANCHA PUL BERISH KERAK?

Bola uchun “pul” ham ijobiy saboq, ham motivatsiya bo’ladigan bir qator holatlar mavjud. Masalan, agar u sizga onlayn do’konda biror narsani tanlashda yordam bergan yoki oilaviy pulingizni tejagan bo’lsa, buning farqlari uning cho’ntagiga tushishi mumkin. Yoki u sizga ishingizda yordam bergan bo’lsa, masalan, ko’plab bolalar hozirda ajoyib taqdimotlar qilishmoqda. Agar siz bolangizni ishingizga jalb qilsangiz, u nima qilayotganingizni yaxshiroq tushunadi va yana bir bor har qanday pul biron sababga ko’ra to’lanishiga ishonch hosil qiladi.



5-QOIDA. BOLANGIZGA ISHONING

Ba'zi ota-onalar farzandlarini moliyaviy xatolardan ko'r-ko'rona himoya qilishga harakat qilishadi. Masalan, ular do'konga yolg'iz borishga ruxsat berishdan qo'rqishadi. Ota-onalar ko'pincha bolaning cho'ntak pulini mantiqsiz sarflashi yoki hatto yo'qotishi mumkinligidan qo'rqib, "ko'z oldida" bo'lishini talab qilishadi.

Natijada bolalar pulni ota-onasidan yashirishni o'rganadilar yoxud otasi yoki onasining kutilmagan qarori tufayli yo'qotmaslik uchun uni imkon qadar tezroq sarflashga intilishadi. Birinchisi – oila ichidagi munosabatlar uchun zararli, ikkinchisi – bolaning moliyaviy kelajagi uchun zararli. Ma'lum bo'lishicha, bolalarning pulga nisbatan munosabatini to'g'ri shakllantirish uchun buni ota-onalar o'zlaridan boshlashlari kerak, ya'ni bolaga ishonishni o'rganishlari shart.

Maktablar va banklar bolalarga moliyaviy savodxonlik asoslarini o'rgatish uchun juda ko'p ishlarini amalga oshiradi. Lekin ular ota-onaning o'rnini bosa olmaydi. Bola oilada birinchi moliyaviy darslarini oladi. Qanday bo'lmasin, ularning pulga bo'lgan munosabati, ushbu sohadagi foydali yoki zararli odatlari bolaning kelajakdagi moliyaviy xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir qiladi.

“

Ota-onalar qila oladigan eng yaxshi narsa – bu o'z farzandlariga pul bilan to'g'ri, samarali va mas'uliyatli munosabatlarning shaxsiy namunasini ko'rsatishdir.

”

Bola uchun moliyaviy savodxonlikni shakllantirish ota-onaning shaxsiy namunasiga asoslanishi kerak. Pulga to'g'ri munosabat, uni rejalashtirish, tejash va mas'uliyatli sarflash qoidalarini bolalikdan o'rgatish muhimdir. Ota-onalar bolalariga ishonib, ularni moliyaviy qarorlar qabul qilishga undashlari, cho'ntak puli orqali mustaqillikni shakllantirishlari va pul insoniy qadriyatlardan ustun emasligini tushuntirishlari lozim. Shu yo'l bilan farzandlar kelajakda moliyaviy jihatdan mustaqil va mas'uliyatli bo'lishlari mumkin.

XULOSA

Ota-onalarning iqtisodiy bilimdonligi oilaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, farzandlarning moliyaviy savodxonligini oshirish va jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy jihatdan ongli qarorlar qabul qila oladigan ota-onalar oila byudjetini samarali boshqarish, daromad va xarajatlar o'rtasida muvozanatni saqlash, shuningdek, jamg'arma va investitsiyalar orqali kelajak xavfsizligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa oilaning uzoq muddatli iqtisodiy mustaqilligini kafolatlaydi.

Farzandlarga moliyaviy tarbiya berish ularning kelajakdagi iqtisodiy muvaffaqiyatining asosiy shartidir. Ota-onalar bolalariga pulni oqilona sarflash, tejash va rejalashtirishni o'rgatish orqali ularda mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu jarayonda ota-onaning moliyaviy odatlari katta rol o'ynaydi, chunki farzandlar ota-onaning iqtisodiy xatti-harakatlarini kuzatib, o'rganadilar.

Oila byudjetini rejalashtirish va samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy tamoyillaridan biridir. Oila daromadlari va xarajatlarini muvozanatli taqsimlash, ortiqcha qarz va moliyaviy qiyinchiliklardan qochish, uzoq muddatli jamg'arma va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish oilaning umumiy iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash dasturlaridan

samarali foydalanish ham oilaning moliyaviy mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farzand tug'ilishidan boshlab, uning ta'limi, salomatligi va kelajakdagi mustaqilligini moliyaviy jihatdan kafolatlash ota-onalarning asosiy mas'uliyatlaridan biridir. Homiladorlik davridan boshlab rejalashtirilgan moliyaviy zaxira yaratish, bola parvarishi va rivojlanishi uchun mablag' to'plash, uzoq muddatli investitsiyalar orqali uning kelajagini ta'minlash zarur. Bu jarayonda ota-onalar moliyaviy intizomni mustahkamlashlari va kelajakka ishonch bilan qarashlari lozim.



OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

X.ABDURAMANOV, I.BAKIYEVA,
B.ISAMUXAMEDOV, J.RUSTAMOV

OTA-ONANING
IQTISODIY
BILIMDONLIGI

USLUBIY QO'LLANMA





“Pages print” nashriyoti,
Toshkent – 2025

Nashr uchun mas’ul: **B.Mavlonov**
Muharrirlar: **U.Yunusov,**
E.Sultonov
Badiiy muharrir: **F.Sobirov**
Sahifalovchi: **L.Abdullayev**

Nashriyot ro’yxat raqami № 263082. 25.04.2024-y.
Bosishga ruxsat etildi: 8.05.2025.
“Segoe UI” garniturası. Qog’oz bichimi: 70x100 $\frac{1}{16}$
Nashriyot bosma tabog’i 2,6.
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Chimboy ko’chasi, 8-uy.

“Pages print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Chimboy ko’chasi, 8-uy.

